

## **JURNALGA MAQOLALARNI TAQDIM ETISH TALABLARI**

“QarDU xabarlar” ilmiy-nazariy, metodik jurnaliga taqdim etiladigan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar jahon andozalaridan kelib chiqadi.

1. Muallif (yoki mualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi “QarDU xabarlar” ilmiy jurnalining ruknlariga mos kelishi shart.

2. Maqola xalqaro andozalar talabi doirasida quyidagi aniq bandlarga ega bo‘lishi lozim:

### **- Maqola mavzusi (Title)**

Maqolalar sarlavhasi bosh harflar bilan yozilishi kerak va imkon qadar qisqa va lo‘nda ko‘rinishda shakllantirilgan bo‘lib, maqolaning tadqiqot yo‘nalishini aniq ifoda etishi lozim. U o‘zbek hamda ingliz tillarida taqdim etilishi kerak.

### **- Maqola muallifi to‘g‘risida ma‘lumot (Author information)**

Ushbu qismda muallifning ismi-sharifi (otasining ismi bilan), ish joyi va lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron pochta manzili, telefon, ORCID hamda UDK raqam ko‘rsatilishi shart.

### **- Maqola annotatsiyasi (Abstract)**

Maqolalarning qisqacha annotatsiyasi hajmi 120-150 (aniq fanlar), 150-200 (ijtimoiy fanlar) so‘zdan ko‘p bo‘lmagan holda o‘zbek va ingliz tillarida beriladi. Unda tadqiqot muammosi, dolzarbligi hamda tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo‘llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari maqolaning to‘la mazmunidan kelib chiqqan holda muallifning ilmiy va amaliy hissasining qisqacha bayoni yoritiladi.

### **- Kalit so‘zlar (Key words)**

Kalit so‘zlar maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa tartibda ochib beruvchi mundarija hisoblanadi. scholar.google.com yoki google.com qidiruv tizimida maqola oson va eng birinchi sahifalarda topilishi uchun tayanch so‘zlarning har biri asosiy matn tarkibida o‘rtacha 6-8 marta takrorlanishi tavsiya etiladi.

### **- Maqola tarkibi quyidagicha shakllantiriladi:**

#### **- Kirish (Introduction)**

Kirish qismida asosan tadqiqot muammosi, uning maqsad va vazifalari yoritiladi. Mazkur qism tadqiqot mavzusining tanlanish asosi, dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini tushuntirib beradi.

#### **- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurlarga ega ekanini namoyon etuvchi qism hisoblanadi. Adabiyotlar tahlilida mavjud intellektual hudud doirasini baholash va shu asosda yechimini topmagan muammo aniqlanadi. Adabiyotlar bo'yicha tahlil asosan sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va boshqa turdagi ma'lumot manbalari asosida amalga oshadi.

#### **- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

Tadqiqot metodologiyasi tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzish, tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo'llari, qurilmalar tuzilishi, ishlash mexanizmi va tadqiqot etikasini belgilash, tadqiqot strategiyasini (kuzatish, eksperiment, keys-stadi, savolnoma, etnografik, arxiv tadqiqot va h.k.) aniqlash bo'yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo'yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo'lni belgilashni anglatadi.

#### **- Natijalar va muhokama (Results and Discussions)**

Natijalar va muhokama qismida asosan muallif (yoki mualliflar) tomonidan olingan yangi tadqiqot natijalari, tahlili va muhokamasi yozilgan bo'lib bu qism maqolaning asosiy qismi (main part) hisoblanadi.

#### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

Tadqiqot maqsad va vazifalarining anglashilganligi hamda savollarining o'z javobini topganligi, asosiy natijalari va umumiy jarayoniga doir xulosalar, jumladan, takliflar va ayni tadqiqotdan kelib chiqqan yo'nalishlar maqola xulosa va takliflari qismining asosini tashkil etishi lozim.

#### **- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)**

Ushbu qismda tadqiqotda foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro'yxati [1], [2] yoki [3] ketma-ketligida qo'yiladi:

- mualliflar ism va sharifi, kitob nomi, nashr manzili, nashriyot nomi, yili, betlari;
- mualliflar ism va sharifi, maqola nomi, jurnal nomi, nashri, yili, soni va betlari.

3. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3sm, o'ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2sm; 1,15 intervalda, A4 shaklida tayyornalishi lozim. Maqolaning maksimal hajmi 10 betdan oshmasligi, minimal hajmi esa 7 betdan kam bo'lmasligi hamda foydalanilgan adabiyotlar soni kamida 10-15 manbadan iborat bo'lishi lozim.

4. Maqolada, albatta, jadval, chizma yoki rasmlar bo'lishi shart. Jadval nomlari uning yuqori qismida, chizma yoki rasm nomlari ularning quyi qismida yozilishi hamda manbasi aniq ko'rsatilishi lozim. Maqolada jadval, chizma va rasmlarning berilishi maqola sifatini oshiruvchi manba bo'lib xizmat qiladi hamda Times News Roman shriftida, 12 kattalikda yoziladi.

5. Maqolalar o'zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

6. O'zbek tilidagi **o', g', q, h** harflari ilmiy maqola matnida to'liq yozilishi shart. **Aks holda ilmiy maqola tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi.**

7. Yuborilgan maqolalar "Anti plagiat" tizimida tekshiriladi. Anti plagiat tizimida maqolaning yangilik qismi (*уникальность*) 70% dan kam bo'lgan maqolalar tahrir hayatiga yuborilmaydi va muallifga qaytariladi. Muallif tomonidan tuzatilgan maqola, Anti plagiat natijasi bilan birga qayta nashr uchun jurnal tahririyatiga yuboriladi.

8. Tahrir hay'atidan **o'tgan maqola muallifi(lari) universitet hisob raqamiga 1 bazaviy hisoblash miqdorida (1 BHM=340 000 so'm, 1.02.2024 yil, holatiga ko'ra) pul mablag'ini o'tkazishi va to'lov kvitansiyasini ma'sul kotibga yuborishi kerak.**

**X/R: 400 1108 6010 4017 0941 0035 0003**

**STIR: 200671933**

To'lov kvitansiyasiga bankdan yoki onlayn programmalar orqali "QarDU XABARLARI" JURNALIDA MAQOLA CHOP ETILISHI UCHUN deb ko'rsatilishi lozim.

**Umumiy ma'lumotlar:**

- Maqolada keltirilgan ma'lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko'chirmachilik holati uchun muallif(lar) mas'uldir.
- Maqola ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi, tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi.
- Jurnal talablariga mos kelmaydigan **maqolalar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.**

**Jurnal manzili:** 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy, Qarshi davlat universiteti filologiya fakulteti binosi, 1-qavat 107-xona.

**Jurnal elektron pochta manzili:** [qardu.xabarlari@mail.ru](mailto:qardu.xabarlari@mail.ru)

**Telegram kanali:** [https://t.me/Qardu\\_Xabarlari2024](https://t.me/Qardu_Xabarlari2024)

**Telefon nomer:** +998972221080 Murojaat vaqti 9<sup>00</sup>-18<sup>00</sup> gacha

# GLOBALASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING TA'SIRI

**Boyqobilova Rohat**

*Xalqaro innovatsion universitet, dotsent*

**Egamberdiyev Javlonbek**

*Xalqaro innovatsion universitet, o'qituvchi*

[javlon\\_egamberdiyev123@gmail.com](mailto:javlon_egamberdiyev123@gmail.com)

+998973140450

*ORCID va UDK raqam*

**Annotatsiya:** hajmi 120-150 (aniq fanlar), 150-200 (ijtimoiy fanlar) soʻzdan iborat boʻlishi lozim.

**Kalit soʻzlar:**

**Abstract:**

**Key words:**

**Kirish. (Introduction)**

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions)**

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References)**

Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3sm, oʻng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2sm; 1,15 intervalda, A4 shaklida tayyornalishi lozim. Maqolaning maksimal hajmi 10 betdan oshmasligi, minimal hajmi esa 7 betdan kam boʻlmasligi hamda foydalanilgan adabiyotlar soni kamida 10-15 manbadan iborat boʻlishi lozim.

- **Ish joyidan ekspert xulosasi bilan maqolani taqdim etishinigiz kerak.**